



O'ZBEKISTONDA XIZMATLAR SOHASI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI VA AMALIY OMILLARI (PORTER 'DIAMOND' MODEL ASOSIDA)

Fozilova Shaxloxon

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini
rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari"
ilmiy - tadqiqot markazi
ORCID:0009-0007-2978-9091
shaxloxonnodirovna_97@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada milliy raqobatbardoshlik tushunchasining nazariy asoslari Porter tomonidan ishlab chiqilgan "Diamond" modeli doirasida tahlil qilinadi hamda ushbu konsepsiyaning O'zbekiston iqtisodiyoti sharoitida namoyon bo'lish xususiyatlari o'rganiladi. Maqolada milliy farovonlikning tabiiy resurslar yoki makroiqtisodiy ko'rsatkichlar yig'indisi emas, balki ichki raqobat muhiti, innovatsion salohiyat va institutsional rivojlanish bilan uzviy bog'liqligi asoslab berilgan. Maqolada O'zbekistonda bozor iqtisodiyotini rivojlantirish uchun moliyaviy imkoniyatlarni kengaytirish bo'yicha samarali chora-tadbirlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: milliy raqobatbardoshlik, innovatsiya va yangilanish, milliy farovonlik, mahalliy bozor talabi, raqobatbardoshlik ustunligi.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ПРАКТИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ СФЕРЫ УСЛУГ УЗБЕКИСТАНА (НА ОСНОВЕ МОДЕЛИ ПОРТЕРА ДАЙМОНДА)

Фозилова Шахлохон

Научно-исследовательский центр
«Научные основы и проблемы развития экономики Узбекистана»
при Ташкентском государственном экономическом университете

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические основы концепции национальной конкурентоспособности в рамках модели «Diamond», разработанной Портером, и изучаются особенности проявления этой концепции в условиях экономики Узбекистана. В статье обосновывается тот факт, что национальное процветание не является суммой природных ресурсов или макроэкономических показателей, а неразрывно связано с внутренней конкурентной средой, инновационным потенциалом и институциональным развитием. Освещены эффективные меры по развитию финансовых возможностей для развития рыночной экономики в Узбекистане.

Ключевые слова: национальная конкурентоспособность, инновации и обновление, национальное процветание, спрос на внутреннем рынке, конкурентное преимущество.

THEORETICAL FOUNDATIONS AND PRACTICAL FACTORS FOR INCREASING THE COMPETITIVENESS OF THE SERVICE SECTOR OF UZBEKISTAN (BASED ON PORTER DIAMOND'S MODEL)

Fozilova Shakhlokhon

Scientific Research Center "Scientific Foundations and Problems of the Development of the Economy of Uzbekistan" under Tashkent State University of Economics

Abstract. *This article analyzes the theoretical foundations of the concept of national competitiveness within the framework of the "Diamond" model developed by Porter, and studies the features of the manifestation of this concept in the economic conditions of Uzbekistan. The article substantiates the fact that national prosperity is not the sum of natural resources or macroeconomic indicators, but is inextricably linked with the internal competitive environment, innovative potential and institutional development. Effective measures to develop financial opportunities for the development of a market economy in Uzbekistan are highlighted.*

Keywords: *national competitiveness, innovation and renewal, national prosperity, domestic market demand, competitive advantage.*

Kirish.

Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish ko'plab mamlakatlarda iqtisodiy siyosatning asosiy maqsadi hisoblanadi. Mamlakat barqaror rivojlanishi va farovonligimero bo'lib o'tadigan jarayon emas, balki u iqtisodiy tizim ichida bosqichma- bosqich o'rganilib tajriba asosida yaratiladigan natijadir. Iqtisodiy rivojlanish bu klassik iqtisodiy nazariyalarda ta'kidlanganidek, faqat tabiiy resurslar, mehnat zaxiralari, foiz stavkalari yoki milliy valyuta kursi kabi omillar bilan belgilanmaydi. Aksincha, millatning raqobatbardoshligi uning sanoat tarmoqlarining innovatsion faoliyati va uzluksiz yangilanish qobiliyatiga bevosita bog'liqdir (Porter, 1990).

Adabiyotlar sharhi.

Milliy raqobatbardoshlik masalasi iqtisodiy nazariyada keng o'rganilgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu konsepsiyaning nazariy asoslari Porter tomonidan ishlab chiqilgan "Millatlarning raqobat ustunligi" (1990) asarida tizimli ravishda yoritilgan bo'lib, unda milliy raqobatbardoshlikni belgilovchi to'rtta determinant ishlab chiqarish omillari sharoiti, ichki talab sharoiti, yaqin va xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlar rivoji hamda firma strategiyasi va ichki raqobat muhiti o'zaro bog'liq holda tahlil qilinadi (Porter, 1990). Porter nazariyasiga ko'ra, milliy farovonlik resurslarning oddiy mavjudligi bilan emas, balki innovatsiya va samaradorlik asosida yaratiladi.

Milliy raqobatbardoshlik nazariyasining keyingi rivojlanish bosqichlari raqobat ustunliklarini evolyutsion yondashuv asosida tushuntiradi (Cho & Moon, 2000). Kichik va o'rta biznes subyektlari raqobatbardoshligini baholashda Porter "Diamond" modeli determinantlarining amaliy ahamiyati empirik jihatdan asoslangan (Kharub & Sharma, 2016). Shuningdek, hududiy raqobat ustunliklarini Porter modeli asosida baholash milliy iqtisodiyot tarmoqlarining eksport salohiyatini aniqlash imkonini beradi (Turdibaeva, 2024).

Xususan, xizmatlar sohasini "Raqamli O'zbekiston – 2030" davlat dasturi orqali qo'llab-quvvatlash Diamond modelining determinantlarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini Porter tomonidan ishlab chiqilgan "Diamond" modeli tashkil etadi. Ilmiy tadqiqot davomida tahlil va sintez usuli, taqqoslash usuli, statistik tahlil usuli, tizimli yondashuv usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Korxonalar kuchli raqobat bosimi va murakkab bozor sharoitlari ta'sirida rivojlanadi hamda jahonning ilg'or raqobatchilariga nisbatan ustunlikka erishadi. Ushbu jarayonda ichki bozordagi keskin raqobat muhiti, talabchan iste'molchilar va rivojlangan mahalliy yetkazib beruvchilar tizimi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi (Porter, 1990). Bunday muhit korxonalarini samaradorlikni oshirish, innovatsiyalarni joriy etish va mahsulot sifatini doimiy takomillashtirishga majbur etadi.

An'anaviy yondashuvlarda mehnat xarajatlari, foiz stavkalari, valyuta kurslari va miqyos iqtisodiyoti asosiy raqobat omillari sifatida ko'riladi. Biroq zamonaviy dunyoda korxonalar o'rtasidagi strategik ittifoqlar, hamkorlik tarmoqlari va global integratsiya jarayonlari muhim ahamiyat kasb etmoqda (Cho & Moon, 2000). Shunday qilib, milliy raqobatbardoshlik resurslarning mavjudligi bilan emas, balki ularni samarali boshqarish, innovatsion faoliyatni rag'batlantirish va kuchli ichki raqobat muhitini shakllantirish orqali ta'minlanadi.

So'nggi yillarda kompaniyalar hamda davlat siyosatida keng qo'llanilayotgan raqobatbardoshlikni ta'minlashga qaratilgan an'anaviy yondashuvlar qator konseptual cheklovlarga ega. Ularning asosiy kamchiligi shundaki, mazkur yondashuvlar raqobatbardoshlikning fundamental manbalarini yuzaki talqin qiladi va ko'pincha makroiqtisodiy ko'rsatkichlar yoki qisqa muddatli ustunliklarga haddan tashqari tayanadi. Bunday yondashuvlarning jozibadorligi ularning tezkor natija va'da qilishidadir, biroq ular uzoq muddatli va barqaror raqobat ustunliklarini shakllantirish imkonini bermaydi.

Mazkur holat raqobatbardoshlikka nisbatan yangicha konseptual qarashni shakllantirish zaruratini yuzaga keltiradi. Yangi yondashuv an'anaviy mafkuraviy qarashlar yoki zamonaviy intellektual tendensiyalar ta'siridan xoli bo'lib, amaliy tajribaga asoslanishi lozim. Xususan, xalqaro bozorlarda muvaffaqiyatga erishgan sanoat tarmoqli korxonalarining real rivojlanish tajribasini tizimli o'rganish muhim metodologik manba sifatida xizmat qiladi. Bunday empirik tahlil "qaysi omillar amalda ishlaydi" va "ular nima sababdan samarali" degan savollarga javob topishga imkon beradi.

Mamlakat rivoji tabiiy resurslar yoki makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning oddiy yig'indisi sifatida emas, balki iqtisodiyotning ichki raqobat muhiti va innovatsion salohiyati asosida shakllanadigan dinamik muhim jarayon sifatida talqin etiladi. Ushbu yondashuv M. Porter (1990) tomonidan ishlab chiqilgan milliy raqobat ustunliklari nazariyasi, xususan, "Diamond" modeli bilan nazariy jihatdan asoslanadi. Porter konsepsiyasiga ko'ra, milliy raqobatbardoshlik to'rtta o'zaro bog'liq omillar tizimi orqali shakllanadi.

Birinchidan, ishlab chiqarish omillari sharoiti (factor conditions) — bu nafaqat tabiiy resurslar, balki malakali mehnat, ilmiy-texnik baza va infratuzilmani ham o'z ichiga oladi. Zamonaviy sharoitda aynan yaratilgan omillar (bilim, innovatsiya, texnologiya) ustun ahamiyat kasb etadi. Ikkinchidan, ichki talab sharoiti (demand conditions) milliy korxonalarini yuqori sifat standartlari va innovatsion yechimlarni joriy etishga majbur qiladi. Talabchan va murakkab ichki bozor kompaniyalarni global bozorlarga chiqishga tayyorlaydi. Uchinchidan, Tegishli va qo'llab-quvvatlovchi tarmoqlar (related and supporting industries): mamlakatda xalqaro miqyosda raqobatbardosh bo'lgan yetkazib beruvchi tarmoqlar va boshqa tegishli tarmoqlarning mavjudligi yoki yo'qligi. To'rtinchidan, firma strategiyasi, tuzilmasi va ichki raqobat muhiti (firm strategy, structure and rivalry) milliy miqyosda sog'lom raqobatni ta'minlaydi. Kuchli ichki raqobat korxonalarini doimiy ravishda samaradorlikni oshirishga, xarajatlarni kamaytirishga va texnologik yangilanishga undaydi.

Ushbu to'rtta omilning o'zaro ta'siri natijasida raqobat ustunliklari yuqori darajada mahalliyashtirilgan holda shakllanadi. Ta'lim tizimi, innovatsion infratuzilma, huquqiy tartibot va makroiqtisodiy barqarorlik orqali davlat "diamond" elementlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni mustahkamlaydi.

Yuqorida bayon etilgan nazariy yondashuvlar O'zbekiston iqtisodiyoti misolida ham o'z tasdig'ini topadi. Xususan, davlatimiz raxbari Sh.M. Mirziyoyevning 2023-yil 11-sentyabrdagi

PF-158-son farmoniga muvofiq “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi tasdiqlandi. Mazkur hujjat kelgusi 7-yilda O‘zbekistonning asosiy rivojlanish yo‘nalishlarini belgilab beruvchi muhim hujjat hisoblanib, 5 ta ustuvor yo‘nalish doirasida 100 ta maqsadga erishishga qaratilgan. O‘zbekiston — 2030” strategiyasi mamlakatning barqaror rivojlanishini ta‘minlash maqsadida ishlab chiqilgan va O‘zbekistonning uzoq muddatli rivojlanish yo‘nalishlarini belgilaydi.

Porterning milliy raqobat ustunliklari konsepsiyasi nuqtai nazaridan qaralganda, O‘zbekistonda ishlab chiqarish omillari sharoiti bosqichma-bosqich modernizatsiya qilinmoqda. So‘nggi yillarda sanoatni texnologik yangilash, raqamlashtirish, logistika infratuzilmasini rivojlantirish hamda oliy ta‘lim va kasbiy tayyorgarlik tizimini isloh qilish orqali “yaratilgan omillar”ning (bilim, malaka, innovatsiya) roli kuchaymoqda. Ichki talab sharoiti ham asta-sekin murakkablashib bormoqda. Aholi daromadlari o‘sishi, xizmatlar sohasi kengayishi va iste‘mol madaniyatining o‘zgarishi mahalliy ishlab chiqaruvchilarni sifat, dizayn va texnologik daraja bo‘yicha raqobatbardosh mahsulotlar taklif etishga undaydi. Talabning bunday transformatsiyasi firmalarni nafaqat ichki bozorda, balki tashqi bozorlarda ham raqobatga tayyorlaydi. Tegishli va qo‘llab-quvvatlovchi tarmoqlar rivoji ham milliy raqobatbardoshlikni mustahkamlashda muhim o‘rin tutadi. O‘zbekistonda sanoat tarmoqlari (to‘qimachilik, qishloq xo‘jaligi, qurilish materiallari, avtomobilsozlik va boshqalar) shakllanishi yetkazib beruvchilar zanjirini mustahkamlab, texnologik hamkorlik va innovatsiyalar diffuziyasini tezlashtirmoqda. Bu esa ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va mahsulot sifatini oshirishga xizmat qiladi. Firma strategiyasi va ichki raqobat muhiti ham tubdan o‘zgarib bormoqda. Bozor mexanizmlarining kuchayishi, xususi sektor ulushining ortishi va tashqi savdo liberallasuvi mahalliy korxonalarni samaradorlikni oshirishga va raqobat muhitini shakllantirmoqda (Maxkamov, 2025). Kuchli ichki raqobat mavjud bo‘lgan sharoitda firmalar innovatsiyalarni tezroq joriy etadi va xalqaro bozorlarda barqaror pozitsiyaga ega bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘ladi (Kharub & Sharma, 2016; 2017). Davlatning roli bu jarayonda bevosita ustunlik yaratish emas, balki institutsional muhitni shakllantirish orqali namoyon bo‘ladi.

1-jadval

Xizmatlar sohasi rivojlanishining umumlashtirilgan ko‘rsatkichlari va Porter Diamond modeli determinantlari (2024–2025)

Yo‘nalish	2024 yil hajmi (mlrd so‘m)	2025 yil hajmi (mlrd so‘m)	O‘sish sur‘ati (%)	Diamond modeli determinanti
Moliyaviy xizmatlar	97 462,2	123 523,1	+124,5	Ichki talab sharoiti; Firma strategiyasi
Savdo xizmatlari	104 143,1	124 528,5	+112,9	Ichki talab sharoiti
Transport xizmatlari	108 291,3	133 590,7	+112,1	Yaqin va xizmat ko‘rsatuvchi tarmoqlar
Aloqa va IT xizmatlari	39 645,6	54 796,9	+120,4	Ishlab chiqarish omillari; Innovatsiya
Ta‘lim xizmatlari	22 123,8	26 322,4	+104,2	Ishlab chiqarish omillari (inson kapitali)
Mehmonxona va ovqatlanish	118 870,6	145 307,7	+108,7	Ichki talab sharoiti
Sog‘liqni saqlash xizmatlari	11 663,7	14 567,7	+113,6	Ichki talab sharoiti
Me‘morchilik va injiniring	7 301	9 233,2	+115,3	Yaqin va xizmat ko‘rsatuvchi tarmoqlar

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. (2025). Xizmatlar sohasi ko‘rsatkichlari (2024–2025 yy.). Rasmiy statistik ma‘lumotlar asosida muallif ishlanmasi.

Xususan, xizmatlar sohasini 2022–2026 yillarda rivojlantirish dasturlari hamda “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi ishlab chiqarish omillarini sifat jihatdan yaxshilash (inson kapitali, IT infratuzilma), ichki talabni murakkablashtirish va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash orqali Diamond modelining determinantlarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Xizmatlar sohasi O'zbekiston iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi bo'lib, yalpi ichki mahsulot (YAIM) hajmida katta ulushni tashkil etadi hamda bandlikni oshirishga xizmat qiladi (Oltinova, 2025). O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil yanvar-sentabr oyida xizmatlar hajmi 722 166,1 mlrd so'mni tashkil etdi, bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan 14,0 % o'sishni anglatadi. Mazkur o'zgarishlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-maydagi PQ-5113-sonli "Xizmatlar sohasini tezkor rivojlantirish choralari to'g'risida"gi qarori bilan bog'liq bo'lib, unda xizmatlar sektorining maqsadli rivojlanish parametrlari belgilangan.

Bu o'sish quyidagi omillar bilan bog'liq:

- Xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalarining ko'payishi,
- Iqtisodiyotni raqamlashtirish va texnologik rivojlanish,
- Davlat tomonidan ko'rsatilayotgan qo'llab-quvvatlash choralari,
- Iste'mol talabining oshishi.

1-jadvalda keltirilgan ko'rsatkichlar O'zbekiston xizmatlar sohasida M. Porter Diamond modelining asosiy determinantlari — ichki talab sharoiti, xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlar rivoji va ichki raqobat muhitining kuchayishini aks ettirib, tarmoq raqobatbardoshligining oshib borayotganini ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar.

Mazkur tadqiqot doirasida Porterning "Diamond" modeli asosida olib borilgan nazariy va empirik tahlildan xulosa qilib aytadigan bo'lsak O'zbekistonda xizmatlar sohasi milliy raqobatbardoshlikni shakllantirishda tizimli va strategik ahamiyat kasb etadi. Xizmatlar sohasi O'zbekiston iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Barqaror o'sish sur'atlari, moliyaviy va raqamli xizmatlarning kengayishi, kichik biznesning o'sishi va davlat tomonidan ko'rsatilayotgan qo'llab-quvvatlash choralari ushbu sohaning uzoq muddatli rivojlanishiga mustahkam zamin yaratmoqda. Biroq, biznes jarayonlarini avtomatlashtirish, kadrlar malakasini oshirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar talab etiladi. Shu bois milliy raqobatbardoshlikni faqat mehnat xarajatlari, foiz stavkalari yoki valyuta kurslari bilan izohlash yetarli emas. U, avvalo, innovatsiyalarni rag'batlantiruvchi ichki tizim, talabchan bozor muhiti va samarali institutsional tuzilma orqali ta'minlanadi. Mazkur yondashuv milliy farovonlikning uzoq muddatli va barqaror manbalarini tushuntirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

Arifovich, A. R., & Qizi, A. M. F. (2025). Raqobat ustunliklari va milliy raqobatbardoshlik. Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика), (11), 1804-1814.

Kharub, M., & Sharma, R. (2017). Comparative analyses of competitive advantage using Porter diamond model (the case of MSMEs in Himachal Pradesh). *Competitiveness Review: An International Business Journal*, 27(2), 132-160.

Kharub, M., & Sharma, R. K. (2016). Investigating the role of porter diamond determinants for competitiveness in MSMEs. *International Journal for Quality Research*, 10(3), 471-486.

Maxkamov, I. (2025). A new stage in the application of market mechanisms to entrepreneurial activity. *muhandislik va iqtisodiyot*, 3(10).

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. (2025). Xizmatlar sohasi ko'rsatkichlari (2024–2025 yy.). Rasmiy statistik ma'lumotlar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2021). PQ-5113-son qaror "Xizmatlar sohasini tezkor rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida".

O'zb. Res. Prezidenti. (2023). PF-158-son Farmon "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida.

O'zbekiston Respublikasi. (2020). "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi.

Oltinova, Y. D. (2025). Xizmat Ko'rsatish Korxonalari Raqobatbardoshligining O'Ziga Xos Xususiyatlari. In *International Conference of Economics, Finance and Acc.Studies (Vol. 13, pp. 17-22)*.

Турдибаева, М. (2024) Экспортный потенциал Ташкентской области Республики Узбекистан: анализ на основе модели конкурентных преимуществ Майкла Портера. *Economic Development and Analysis*, 3(7), 144–153.